

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK – IQTISODIY O`SISHNING MUHIM OMILI

Savurova Shahrizoda Abdumalik qizi¹, Savurov Mustafu Ikrom o'g'li²

¹A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistri,

²A.Qodiriy nomidagi JDPI, 4-bosqich talabasi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail: savurovashahrizoda@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror o`sinh omilidir.

Kalit soʻzlar: Jamiyat, davlat, kichik biznes, tadbirkorlik, bozor, xususiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, foyda, xo`jalik.

Аннотация: В современном быстро меняющемся мире предпринимательство является фактором устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: Общество, государство, малый бизнес, предпринимательство, рынок, частное, экономическое, политическое, социальное, прибыль, экономика.

Annotation: In today's fast-paced world, entrepreneurship is a factor in sustainable economic growth.

Keywords: Society, state, small business, entrepreneurship, market, private, economic, political, social, profit, economy.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o`zgarishlarning eng muhim omili bo`lib xizmat qiladi. Ayniqsa o`tish davrida bozor islohotlari turlicha namoyon bo`layotgan mamlakatlar, xususan, MDH davlatlarida bu tendentsiya yaqqol ko`zga tashlanmoqda. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy hayotda qator funksiyalarni bajaradi. Uning siyosiy funksiyasi jamiyat iqtisodiyotining asosiy bo`g`ini — o`rta mulkdorlar sinfining shakllanish manbai sifatida namoyon bo`lishidadir. Iqtisodiy funktsiya tadbirkorlikni keng quloq yoydirish bilan bog`liq bo`lib, raqobat muhitini shakllantirish, bozorni turli tovarlar va xizmatlar bilan to`ldirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirishga qaratilgan. Ijtimoiy funktsiya esa, yangi ish joylari tashkil qilish orqali bandlikni ta`minlash, aholining daromadini oshirish yo`li bilan uning turmush darajasini ko`tarishni nazarda tutadi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qulay shart-sharoitlar yaratish – jamiyatda samarali amal qiladigan bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkdorlar sinfini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatining yangi, demokratik institutlarini qaror toptirishning muhim shartidir. Bu muhim vazifa hamda uni hal qilishning butun murakkabligi har bir mamlakatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirishga noan'anaviy, nostandart yondoshishni taqozo qiladi. Shubhasiz, bunda, ushbu masalaning g'oyat muhim ahamiyat kasb etishini jamiyatning barcha a'zolari anglab yetishlari, uning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o'rtasida barqaror sheriklik munosabatlarini qaror toptirish zarur.

Tadbirkorlik – foyda olish maqsadida resurslardan yanada samarali foydalanishga qaratilgan xo'jalik faoliyatining muhim turidir. Ushbu jarayon quyidagilar orqali izohlanadi:

- 1) tadbirkorlik kishilarning tavakkalchilik va mas'uliyat bilan bog'liq tashabbuskorlik faoliyati demakdir;
- 2) tadbirkorlik cheklangan va innovatsion yondashuvni talab qiladigan resurslardan yanada oqilona foydalanishga qaratiladi;
- 3) tadbirkorlik faoliyati qo'shimcha daromad va foyda keltirgan taqdirdagina o'zini oqlagan hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati davomida, bozor iqtisodiyotining nimani, qanday, kim uchun ishlab chiqarish kerak, degan muhim masalalari o'z yechimini topadi. Iqtisodiy erkinlik (mustaqillik), to'liq moddiy javobgarlik, maksimal darajada foyda olishga qaratilgan tijorat faoliyati tadbirkorlikning eng muhim iqtisodiy tamoyillari hisoblanadi.

Tadbirkorlikning ikkita muhim turi – savdo-sotiqqa asoslangan, narxlardagi farqlar hisobidan foyda olishni nazarda tutadigan hamda aniq iste'molchining ehtiyojlariga mos holda mahsulot ishlab chiqarish va sotishga asoslangan faoliyatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning barcha shakli – davlat, xususiy (rivojlanishda ustunlikka ega), jamoa, shaxsiy hamda aralash shakllari teng huquqli tarzda taraqqiy etadi.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega. U xo'jalik yuritishning samarali usullarini rag'batlantiradi, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatga keng yo'l ochadi, pirovardida iqtisodiyotni barqarorlashtirib, jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. O'zbekistonda bozor iqtisodiy munosabatlariga o'tish munosabati bilan tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirishning tashkiliy va moliyaviy choralari o'z tarkibiga olgan dastur qabul qilingan va

amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon tadbirkorlar va kichik biznes sub`ektlari foydasiga takomillashtirib borilmoqda.

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulkan imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilanib, izchillik bilan joriy etib kelinmoqda va ular o`z samarasini berayotir. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitlari yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Xususan, uning huquqiy negizi kuchaytirildi. Fuqarolik, yer, soliq, bojxona kodekslari, “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to`g`risida”, “Xorijiy investitsiyalar to`g`risida”, “Banklar va bank faoliyati to`g`risida” va boshqa qonuniy hujjatlarning qabul qilinishi, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va modernizatsiyalashning mustahkam huquqiy negizini yaratish barobarida, bozor islohotlarining samaradorligini ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kichik biznes va tadbirkorlikning afzalliklari ko`p. Bunda bozor kon`yunkturasiga tez moslashish, talabning o`zgarishini tez ilg`ash, faoliyatning bir turidan boshqasiga kam xarajat evaziga tezda moslashish imkoniyatlari yaratiladi. Faoliyatning ushbu sektori bandlik muammosini hal qilish, odamga o`zining erkin mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini oshirishda juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan, bugun hamyurtlarimizning chakana savdo, maishiy xizmat bilan shug`ullanayotganlari, ishlab chiqarish jarayoniga faol kirib borayotganlari, ayni muddaodir. Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlariga ko`ra kichik biznesda sanoat ishlab chiqarishi hajmining o`shish sur`atlari umumiy sanoatdagi o`rtacha ko`rsatkichdan 2-3 marta ko`pdir.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada qo`llab-quvvatlash, ayniqsa qishloq joylarida uni ravnaq toptirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlari eksportga yo`naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda yurtdoshlarimizning turmush farovonligini oshirishda muhim o`rin tutmoqda. Xususan, Samarqand viloyatining Tayloq, Urgut, Samarqand, Bulung`ur, Kattaqo`rg`on va boshqa tumanlarida ushbu yo`nalishda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloqda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ilgari ham mavjud edi, albatta. Ammo ularning texnik jihozlanish darajasi ancha past bo`lib, ishlarning asosiy qismi qo`lda bajarilar, bu esa ko`p vaqtni talab qilar edi. Hozir tashkil etilayotgan korxonalarda esa ishlab chiqarish jarayonlari to`liq avtomatlashtirilgan bo`lib, operatorlar ish jarayonini kompyuter yordamida boshqaradilar.

Mustaqillik yillarida O`zbekistonda xususiy biznesni tashkil qilish va har

tomonlama rivojlantirish borasida ko`plab ishlar amalga oshirildi. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektlarini ro`yxatga olishni tartibga keltirish, tadbirkorlar va xorijiy investorlarning manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy negizni mustahkamlash, ularning xom ashyo va moliyaviy resurslardan foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish, imtiyozlar berish borasida amalga oshirilgan keng ko`lamli tadbirlar mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotida yangi ufqlar ochdi.

Xullas, bugun tadbirkor davlat himoyasida bo`lib, olgan foydasiga to`la egalik qilish, o`zining faoliyat doirasini kengaytirish, muammoli vaziyatlarda sudga murojaat qilish imkoniyatlariga ega. Tadbirkorlar hamda ishbilarmon doiralarning huquqiy bilim va malakalarini oshirish maqsadida, joylarda seminarlar, davra suhbatlari, prokuratura, soliq, bojxona idoralari va mahalliy hokimiyat xodimlari bilan uchrashuvlar hamda boshqa xil tadbirlar o`tkazib kelinmoqda.

Boshqa sohalar singari ta`lim sohasida ham tadbirkorlikni rivojlantirishga e`tiborni kuchaytirish davr taqozosiga aylandi. Ushbu sohada mehnat qilib kelayotganlarning aksariyati oliy ma`lumotli, uy xo`jaligi, tomorqa yuritish, deoqonchilik, chorvachilik va boshqa masalalarda muayyan tajriba va ko`nikmalarga ega bo`lgan kishilardir. Ayniqsa ta`lim muassasalarida tadbirkorlikni rivojlantirish byudjetdan tashqari mablag`lar topishning eng samarali yo`lidir. Shuningdek, tadbirkorlarning siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ta`lim muassasasi xodimlari, olimlar, mutaxassislar tomonidan turli metodik mazmundagi tavsiyalar ishlab chiqish ham sohada kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Axmedov D.Q., Ishmuxammedov A.E., Jumaev Q.X., Jumaev Z.A
2. Makroiqtisodiyot. Darslik.- T.: TDIU, 2004, 240 b.
3. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. М.: Дело и Сервис, 2001.
4. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика: Торговая политика. Инфляция и безработица. Социальная политика. СПб.: ЗАО «Питер», 2005.
5. Гайгер А., Линвуд Т. Макроэкономическая теория и переходная экономика. Пер. с англ. М.: ИНФРА-М, 1996.
6. Галперин В.М., Гребенников П.И., Леусский А.И., Тарасевич Л.С.
7. Макроэкономика: Учебник. СПб.: СПбГУЕФ, 1997.
8. Дорнбуш Р., Фишер С. Макроэкономика. М.: МГУ, 1997.
9. Yo`ldoshev Z., Qosimov M.S. Makroiqtisodiyot asoslari. T.:
10. «O`qituvchi», 1994

11. Менкю Н.Г. Макроэкономика. М.:МГУ,1997.
12. Селищев А.С. Макроэкономика: Открытая экономика. Причины экономического роста. Динамика рынков. СПб.: ЗАО «Питер», 2005.
13. Xodjaev R., Maxmudov B., Xadjaev X., Ergashev E, Egamberdiev R. Mikro va makroiqtisodiyot.O'quv qo'llanma-T.: "ILM ZIYO" 2012, 324 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2012, 282 b.
15. Abulkasimov X. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. – T. "Akademiya", 2011, 92 b.
16. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
17. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.*
18. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
19. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР КАСБИЙ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ. *Физико-технологического образование*, 1(1)
20. Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72
21. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.
22. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).